

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 81'367.633:81'42

MATN TUZILISHIDA TINISH BELGILARINING O'RNI VA VAZIFALARI

МЕСТО И ФУНКЦИИ ЗНАКОВ ПРЕПИНАНИЯ В СТРУКТУРЕ ТЕКСТА

THE PLACE AND FUNCTIONS OF PUNCTUATION MARKS IN THE STRUCTURE OF THE TEXT

Askarova Umidaxon Maxamadjon qizi¹ ¹O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisiXolbekova Dilrabo Xusniddin qizi² ²O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Og'zaki nutqda fikrlarni ifoda etishda ohang, pauza va urg'u kabi vositalar xizmat qilsa, yozma nutqda bu vazifani tinish belgilar bajaradi. Tinish belgilarisiz yozilgan matn ham mazmunan aniq, hamda grammatik jihatdan to'g'ri bo'la olmaydi. Har bir tinish belgisi jumla va matn tuzilishida o'ziga xos vazifani bajaradi. Yozuv madaniyatini rivojlantirish va savodxonlikni oshirishda tinish belgilarining roli beqiyosdir.

Ushbu maqolada tinish belgilarining matndagi o'rni, ularning grammatik vazifalari, o'qish va tushunishga ta'siri batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, ba'zi o'rinlarda tinish belgilarini noto'g'ri qo'llash natijasida yuzaga keladigan xatoliklar haqida ham fikrlar berilgan.

Аннотация

Если в устной речи такие средства, как тон, пауза и ударение, служат для выражения мыслей, то в письменной речи эту функцию выполняют знаки препинания. Текст, написанный без знаков препинания, не может быть понятным по содержанию и грамматически правильным. Каждый знак препинания выполняет определённую функцию в структуре предложения и текста. Роль знаков препинания в развитии культуры письма и повышении грамотности не имеет себе равных.

В статье подробно анализируется роль знаков препинания в тексте, их грамматические функции и влияние на чтение и понимание. Также рассматриваются некоторые ошибки, которые могут возникнуть в результате неправильного использования знаков препинания.

Abstract

While in oral speech, tools such as tone, pause, and stress serve to express thoughts, in written speech this function is performed by punctuation marks. A text written without punctuation marks cannot be clear in content or grammatically correct. Each punctuation mark performs a specific function in the structure of a sentence and text. The role of punctuation marks in developing writing culture and increasing literacy is incomparable.

This article provides a detailed analysis of the role of punctuation marks in the text, their grammatical functions, and their impact on reading and comprehension. It also discusses some of the errors that can occur as a result of incorrect use of punctuation marks.

Kalit so'zlar: tinish belgilar, yozma nutq, matn tuzilishi, grammatika, sintaksis, savodxonlik, yozuv madaniyati, nutq ifodasi

Ключевые слова: знаки препинания, письменная речь, структура текста, грамматика, синтаксис, грамотность, культура письма, речевая выразительность

Key words: punctuation marks, written speech, text structure, grammar, syntax, literacy, writing culture, speech expression

KIRISH

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashinish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli hisoblanadi. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi, xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar tushuniladi. Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Tinish belgilar fikrning

yakunlanganligini, davomiyligini, turlanishini va emotsional tusini ko'rsatadi. Ular matnni o'qishni yengillashtiradi, noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi. Yozma nutqning ma'nodorligi, mazmunan aniqligi, grammatik tuzilishi va o'qishga qulayligi ko'p jihatdan tinish belgilariga bog'liq. Shuning uchun ham ularni to'g'ri qo'llash savodxonlik belgisi hisoblanadi. Tinish belgilarini bilish va amaliyotda to'g'ri qo'llash yozma nutq madaniyatining ajralmas qismi sanaladi. [Elov B., Sobirova Z. Tinish belgilarining matndagi ahamiyati va vazifalari: 541]

ASOSIY QISM

Punktuatsiya — tinish belgilarining qo'llanilish qoidalari yig'indisidir. Bu so'z lotincha *punctum* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, nuqta, belgi, shakl degan ma'nolarni anglatadi. Shu bilan bir qatorda puntuatsiya uch xil ma'noda ishlatiladi: tinish belgilar tizimini o'rgatuvchi bo'lim, tinish belgilarining qo'llanilish qoidalari va tinish belgilarining ma'nolari. Punktuatsiya tinish belgilarining miqdori, funksiyasi, qo'llanilish tizimi va tartibini o'rganadi. Harflar yig'indisi — alifboni, to'g'ri yozuv qoidalari yig'indisi — orfografiyani, to'g'ri talaffuz normalari — orfoepiyani tashkil etganidek, tinish belgilar tizimi ham puntuatsiyani tashkil etadi.

Tinish belgilarining funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sintaktik vazifasi

Tinish belgilarining asosiy vazifalaridan biri sintaktik vazifa bo'lib, u matndagi gap va so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanishni ko'rsatishdir. Ular gap tuzilishini aniqlashga yordam beradi, gaplarni bo'lib beradi, so'zlarni bir-biridan ajratadi va matnni tushunarli qiladi. Masalan, *"Bugun ob-havo juda yaxshi."* Ushbu gapda nuqta gapni tugatmoqda. *"Bugun, ertalab, ob-havo yaxshi bo'ldi."* Bu gapda esa vergul gap ichidagi qismlarni ajratishga xizmat qilmoqda.

2. Mantiqiy va semantik vazifasi

Tinish belgilar matn mazmunining to'g'ri anglanishida muhim rol o'ynaydi. Ular gaplarning mantiqiy bog'liqligini ko'rsatadi, fikrlarning tartibini belgilaydi va so'zlarning ma'nosini aniqlashtiradi. Gaplar orasidagi sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlilik kabi semantik munosabatlar tinish belgilar orqali oson tushuniladi. Masalan, "lekin", "ammo", "shuning uchun" kabi bog'lovchilar qatnashgan gaplarda vergul qo'yilishi fikrlar orasidagi mantiqiy bog'lanishni yanada aniqroq ifodalaydi va o'quvchiga fikrlar munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. [Elov B., Sobirova Z. Tinish belgilarining matndagi ahamiyati va vazifalari: 541]

Misollar:

- *"U kelmoqchi edi, lekin ob-havo yomonlashdi."* — bu yerda vergul "lekin" bog'lovchisidan oldin qo'yilib, qarama-qarshi fikrlar orasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.
- *"Men bu ishni tugatdim, ammo natija kutganidek emas."* — vergul yordamida gap qismlari ajratilib, fikrning ikkinchi qismi ta'kidlanadi.
- *"U ko'p ishladi, shuning uchun ham yaxshi natijaga erishdi."* — bu yerda vergul sabab va natija orasidagi mantiqiy bog'lanishni yaqqol ko'rsatadi.

3. Emotsional-intonatsion vazifasi

Tinish belgilar nutqdagi ohang va kayfiyatni shuningdek, muallifning hissiyotlari hamda intonatsiyasini ifodalaydi. Masalan, undov belgisi hayajon, hayrat yoki qo'ng'iroqni bildirsa, so'roq belgisi savolni ko'rsatadi.

Masalan:

- Undov belgisi (!) hayajon, hayrat yoki qo'ng'iroqni bildiradi: *"Voy, qanday chiroyli manzara!"* — bu yerda hayrat ifodalangan. *"Eshitdingmi? Darhol keling!"* — qo'ng'iroq yoki chaqiriq ohangi.
- So'roq belgisi (?) savolni va mulohaza ohangini ko'rsatadi: *"Siz kimsiz?"* — bu oddiy savol. *"Haqiqatan shundaymi?"* — bu yerda hayrat yoki shubha ohangi bor.

Bundan tashqari, turli uslubdagi matnlarda tinish belgilarining ishlatilishida o'ziga xosliklarga ega. Misol uchun, ilmiy uslub aniq, lo'nda va faktlarga asoslangan, tinish belgilarining qat'iy qo'llanilishi talab etsa, badiiy uslubda esa undovlar, iqtiboslar, pauzalar ko'p bo'ladi va tinish belgilarining ko'plab turi qo'llaniladi. Publitsistik uslubda boshqa uslublardan farqli ravishda ta'sirchanlik uchun undov va so'roq belgilaridan ko'proq foydalaniladi.

Tinish belgilarining turlari. Har bir tinish belgisi o'ziga xos vazifaga ega bo'lib, ular bir necha guruhlariga bo'linadi.

TILSHUNOSLIK

1. Tugallovchi tinish belgilar. **Bu belgilar gapning tugaganini bildiradi:**

- **Nuqta (.)** – yakunlangan, bayon qilinayotgan fikrni bildiradi.

Masalan: Bugun havo iliq.

- **Savol belgisi (?)** – so'roq ohangida aytilgan gap oxiriga qo'yiladi.

Masalan: Siz qayerda yashaysiz?

- **Undov belgisi (!)** – hayajon, hayrat, chaqiriq yoki buyruqni bildiradi.

Masalan: Ehtiyot bo'!

2. Ajratuvchi tinish belgilar. **Bu belgilar matn ichidagi so'z yoki gap qismlarini ajratish uchun ishlatiladi:**

- **Vergul (,)** – gapdagi teng yoki bo'laklarning ajratilishi uchun.

Masalan: U bozordan sabzavot, meva, non va sut oldi.

- **Nuqta-vergul (;)** – murakkab fikrlar orasida, nuqtaga yaqin bo'lgan ajratish.

Masalan: U keldi; lekin kechikdi.

- **Ikki nuqta (:)** – sanab o'tiladigan yoki izohlovchi fikr oldidan qo'yiladi.

Masalan: Ular uchta edi: Ali, Vali va Salim.

- **Tire (—)** – izoh, to'satdan o'zgarish, bevosita nutq oldidan.

Masalan: Bu — haqiqat!

- **Qo'shtirnoq (" ")** – bevosita nutq, iqtibos yoki alohida urg'u uchun ishlatiladi.

Masalan: U dedi: "Men kelaman."

3. Qo'shimcha va yordamchi belgilar.

- **Qavs ()** – izoh yoki qo'shimcha ma'lumot berishda ishlatiladi.

Masalan: Alisher Navoiy (1441–1501) buyuk shoir edi.

- **Ko'p nuqta (...)** – fikrning davom etishini yoki to'liq emasligini bildiradi.

Masalan: Men... bilmadim, nima deyishni.

Tinish belgilarining matndagi o'rni.

- Gapning tuzilishini belgilaydi;
- Fikrlar orasidagi mantiqiy bog'lanishni ko'rsatadi;
- Matnga ohang va emotsional tus bag'ishlaydi;
- O'quvchiga matnni to'g'ri tushunishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Savodxonlikni oshirishda orfografiya - to'g'ri yozishning o'rni qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash ham shunchalik muhimdir. Zero, yozuvda tinish belgilarining o'rinli ishlatilishi nafaqat yozuv egasining, balki millatning saviyasini, yozuv madaniyatini ko'rsatib turadi.[Odilov Y. O'zbek tili me'yorlari (pukutuatsiya): 4]

Filologiya fanlari doktori, professor Y.Odilovning 2021-yilda chop etilgan "O'zbek tili me'yorlari (pukutuatsiya)" kitobi aynan tinish belgilari haqida yozilgan bo'lib, mazkur kitobda zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi me'yorlari, tinish belgilarining qo'llanishi kabi turli masalalar haqida fikr yuritiladi. Ushbu kitobning birinchi qismini yozishda punktuatsiya bo'yicha izlanish olib borgan K.Nazarov, Sh.Shoabdurahmonov, H.G'oziyev, H.Jamolxonov, B.Bahriddinova kabi tilshunoslarning ishlariga lozim o'rinlarda murojaat qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yozma nutqda har bir tinish belgisining qo'llanishi ma'lum bir qoidalar va tizimga asoslanadi. Tinish belgilarining noto'g'ri ishlatilishi yoki umuman qo'llanilmasligi yozma nutqda turli muammolarga olib keladi. Imlo qoidalariga, uslubiy me'yorlarga amal qilinmagan hollarda matnda xatolarga yo'l qo'yiladi. Bunday xatolar matnni tushunarsiz qilishi, ma'nosini buzishi, hatto butunlay boshqacha ma'no paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.[Elov B., Sobirova Z. Tinish belgilarining matndagi ahamiyati va vazifalari: 544]

Kundan kunga yoshlar orasida tez va qulay yozish uchun ba'zi harflarni raqamlar yoki boshqa belgilar bilan almashtirish odati shakllanib bormoqda. Masalan, "ch" o'miga "4", "sh" o'miga "w", "o" o'miga "6" kabi yozishlar — bu o'ziga xos shaxsiy yoki guruh ichidagi kodlash sifatida qabul qilinmoqda. Natijada, nafaqat so'zlar, balki tinish belgilarining ishlatilishi ham kamayib, matnlar yanada chalkash va ba'zida tushunarsiz ko'rinishga kelmoqda. Tinish belgilarining noto'g'ri

yoki umuman ishlatilmasligi o'qishdagi qiyinchiliklarni oshiradi va matnning mazmunini yetkazishda muammo tug'diradi.

Biz universitetda o'quv mashg'ulotlarda talabalardan bexato yozishni so'raganimizda ayrim talabalarning "Imloviy yoki uslubiy to'g'ri yozishimiz shart emas, kompyuterda matnni to'g'rilab beradigan programmalar bor" deyishlarini eshitib, achinasan kishi. Avtomatik tahrir va tahlil jarayoni makro matnlarni vaqtdan unumli foydalangan holda to'g'rilashdir. Biz bir narsani unutmasligimiz kerakki, biz kompyuterdan qanchalik oqilona foydalanishimiz albatta savodxonligimizga zarar keltirmasligi kerak.[Askarova U. Matnlarni avtomatik tahrir qilish tizimining savodxonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati: *Farg'ona Davlat Universiteti*, 31(4)]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tinish belgilar yozma nutqning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat grammatik me'yorlarni, balki fikrning aniq va ravon ifodalanishini ta'minlaydi. Ularning sintaktik, semantik va emotsional vazifalari tufayli matnlar tushunarli, mazmunli, mantiqiy bo'lib chiqadi va buning natijasida ilmiy, badiiy va rasmiy nutqlarda tiniq ifodani ta'minlaydi. Agar gaplarda tinish belgilarni tushirib qoldirsak yoki tinish belgilarni noo'rin qo'llasak gapdagi ma'no, mazmun buziladi. Shu boisdan, tinish belgilarining o'rganilishi va amaliyotda to'g'ri qo'llanilishi har bir o'quvchi va yozuvchi uchun, umumiy aytganda har birimiz uchun zaruriy ko'nikma bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Askarova U. Kompyuter lingvistikasining kirib kelishi va uning bugungi kundagi ahamiyati. *American journal of education and learning* (pp. 538-543). 2025, February.
2. Askarova U. Savodxonlikni oshirishda matnlarni avtomatik tahrir qilish tizimining o'rni. "Contemporary technologies of computational linguistics - ctcl.2025" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya - Toshkent, 2025.
3. Askarova, U. (2025). Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg'ona Davlat Universiteti*, 31(1), 83. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5320>
4. Askarova U. (2025). Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg'ona Davlat Universiteti*, 31(3), 130.
5. Askarova U. (2025). Matnlarni avtomatik tahrir qilish tizimining savodxonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. *Farg'ona Davlat Universiteti*, 31(4)
6. Dushatova Sh., Xojimatov B. Tinish belgilarining yozma nutqdagi ahamiyati. *International scientific and practical conference "the time of scientific progress"*. Warsaw (Poland), 2023.
7. Elov B., Sobirova Z. Tinish belgilarining matndagi ahamiyati va vazifalari. "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.-Toshkent, 2025.
8. Sobirova N. Avtomatik tahrir asosiy yo'nalish sifatida. *Academic Research in Educational Sciences. Multidisciplinary Scientific journal* (pp. 77-82). 2024, June.
9. Odilov Y. O'zbek tili me'yorlari (pukutuatsiya). — Toshkent: Zamin nashr, 2021.
10. Xudoyberganov N.U. Matnlarni avtomatik tahrir qilishda imlo lug'ati va grammatik qoidalarning o'rni. "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya - Toshkent, 2021.